



**ALISHER NAVOIY VA BOBUR QALAMIGA MANSUB ILMIY-
MA'RIFIY ASARLAR MUQOYASASI**

*Muallif: Termiz davlat universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti 4-bosqich
talabasi*

Normamatova Shohista

Ilmiy rahbar: Termiz davlat universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti

Adabiyotshunoslik kafedrasi o'qituvchisi, PhD,

Dots, Abdumurod Arslonov

Annotasiya: Ushbu maqolada ikki buyuk ijodkorning qalamiga mansub ilmiy-ma'rifiy asarlari o'zaro qiyoslangan. Ham g'oyaviy jihatdan, ham shakl jihatdan bir qancha tafovutlar ko'rib chiqilgan. Muhokamaga sabab bo'luvchi bir qancha masalalarni yoritishga harakat qilingan.

Kalit so'zlar: "Sirojul-muslimin", "Mubayyin", Navoiy, Bobur, shariat, nazm, diniy masalalar, aqoid, shariat, tafovut, qiyos, o'xshashlik.

Diniy-tasavvufiy asarlar orasida eng mashhur va hammaga ma'lum asarlar sirasiga biz Alisher Navoiyning "Sirojul muslimin" hamda Zahiriddin Muhammad Boburning "Mubayyin" asarlarini olishimiz mumkin. Ushbu asarlar boshqa diniy asarlardan shakli bilan farqlanadi. Negaki, ular nazmiy asarlardir, ya'ni dindagi masalalarni barcha uchun o'qishli bo'lishini ta'minlash uchun mualliflar she'riy yo'lni tanlaganlar. Har ikki asar ham mazmun jihatdan bir biriga juda yaqin. Lekin shakl jihatdan hamda ba'zi diniy masalalarga yondashish jihatdan bir qancha tafovutlar mavjud. Quyida ularni tahlil qilib chiqamiz.

Har ikkala asarning kirish qismi hamd va nat' bilan boshlangan. Undan keyin esa ikkala muallif ham "Kitob nazmining sababi" bobini keltirgan. Alisher Navoiy "Sirojul-muslimin" kitobining yozilish sababini quyidagicha keltiradi:



Eshittim bazmining bir nuktadoni,
Shohi sohibqiron jon darmiyoni.
Demish: ne sud gar bir uyni tuzmish
Ki, nazmi shaynidin ko‘p uyni buzmish,
O‘qug‘on el aning she‘rini payvast,
Tilar bo‘lg‘ay hamisha oshiqu mast.
Solib islomu din uyiga oshub,
Binoyi xayr butkarmak ne mahsub
Tushub bu nuktadin jismim aro pech,
Chu bildim, chin emish dam urmadim hech.
Dedimkim, aylayin bir nusxa mastur
Ki, bo‘lg‘ay dinu islom uyi ma‘mur.
Nekim, din ahlig‘a bo‘lg‘ay zarurat,
Bari tutqay ani bilgancha surat.¹

Ya‘ni bir majlisda shohning eng yaqin kishilaridan biri u hamisha o‘zining ishq-muhabbat haqidagi she‘rlari bilan insonlarni oshiq-u mast qilgan. Islom, din-u diyonat uyini vayron qilib, hayriya binolarini barpo qilishi inobatga olinarmikan deydi. Bilamizki, Navoiyning ko‘pgina sh‘rlarining mavzusi ishq-muhabbat, uning tub mazmuni esa Alloh va uning Rosuliga bo‘lgan muhabbat. Ammo o‘sha davrning ayrim ilm davrasidan uzoq kishilari bir insonning ikkinchi insonga bo‘lgan muhabbati o‘laroq qarashgan. Shu sababdan ham yuqoridagi kabi fikrlar ko‘p bo‘lgan. Navoiy esa shu safar o‘sha kishining so‘zi qattiq ta‘sir qilganligini, bu so‘zlardan ichiga o‘t tushganini ta‘kidlaydi. “Ko‘nglimga dedimki: “Endi men shunday bir narsa qoralayki, u sababli dini islom binosi ta‘mir topsin-obod bo‘lsin.”

2

¹ Navoiy Alisher. Sirojul-muslimin. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik. – T.: Fan, 1998. 14-jild. 233-b

² Xasanxon Yaxyo Abdulmajid, Xusaynxon Yaxyo Abdulmajid. Navoiydan chu topkaylar navoye - T.: "Hilol-Nashr", 2023, 125-b



Bobur esa “Mubayyin” asarining yozilish sababi farzandlariga nasihat ekanligi va bu asar ularga nasihatnioma, hayotlarida dasturulamal vazifasini bajarishini, bu asar uzoq yillar o‘z avlodiga manfaat keltirishini, juda ko‘plab kitobxonlar qo‘liga yetib borishini istaydi.

Bilgasen ey xujasta-e farzand,
Jigarim birla jonima payvand.
Mas‘alalar-ki, ul zarur erdi,
Bilmasang dininga qusur erdi.
...Din-u donishda har kun afzun bo‘l,
Davlat-u baxt ila Humoyun bo‘l.
Komron bo‘l jahonda, davlat ko‘r,
Yuz tuman obro‘-yu izzat ko‘r.³

“Sirojul-muslimin” asarining keyingi bobida shariatdagi hukmlarning sharhi hamda aqiyda qoidalarining bayoni keltirilgan va bu bobda aqida so‘zining asl ma‘nosi, shariat ahkomlariga to‘xtaladi. Keyin esa iymon qoidasining qisqacha bayonini keltiradi. Ya‘ni, iymon oqil insonning balog‘atga yetganda iymon keltirishi haqida, iymonning til bilan iqrор bo‘lish va dil bilan ishonishdir deydi.

“Mubayyin” da esa “Kitob nazmining sababi” bobidan so‘ng islom dinidagi beshta farzning bayoni haqida ma‘lumot keltiriladi. Iymon haqida ma‘lumot keltirib iymonning ham 6 ta farzi borligini ta‘kidlaydi:

Avval iymon Xudog‘a kelturgil,
Shirk cherigin zamiridin surgil.
Dog‘i bilkim malak erur mavjud,
Barchasi abd-u, Tengridur ma‘bud.
Bor uchunchi kitob-i iqrори,
Tengri tavfiq bo‘lsa dey bori.

³ Bobur Z.M. Mubayyin. T.: Abdulla Kodiriy nomidagi Xalk merosi nashriyoti, 2000, 7-b



Yana bil anbiyosini barhaq,
Ro‘z-i oxirini dog‘i bil mundoq.
Yana bilgil Xudodin, ey hamdam,
Yaxshiliq bo‘lsa, gar yamonliq ham.
Ushbular-kim borin dedi Bobur,
Bilga sen kim, mufassal-i iymondur.⁴

Bobur ushbu asarda iymonning oltita farzini keltiradi, Navoiy ham “Sirojul-muslimin” asarida ham ushbu oltita farzni sanab o‘tadi. Ammo bugungi kundagi faqihlarimiz va boshqa bir qancha diniy masalalar yoritilgan manbalarda iymonning yettita farzini keltirib o‘tishgan. Bular:

1. Alloh taologa iymon keltirish;
2. Farishtalarga iymon keltirish;
3. Allohning kitoblariga iymon keltirish;
4. Payg‘ambarlariga iymon keltirish;
5. Qiyomat kuniga iymon keltirish;
6. Yaxshilik va yomonlik ham Allohdan ekaniga iymon keltirish;
7. O‘lgandan so‘ng qayta tirilishga iymon keltirish;⁵

Demak ikkala muallif ham yettinchi farz ya‘ni o‘lgandan so‘ng qayta tirilishga iymon keltirish bandini keltirishmagan degan xulosaga kelamiz.

Keying bobda esa Navoiy Alloh taoloning sakkizta sifatini keltirib o‘tadi, Bobur esa yettita sifatning bayoni bilan cheklanadi.

“Sirojul-muslimin” ning keyinggi qismida Alisher Navoiy tahorat va uning farzlari haqida so‘z yuritadi. Tahoratda to‘rtta farz borligini aytib ularning bayonini birma bir keltirib o‘tadi. Namoz haqida uning o‘n ikki farzi haqida ham atroflicha ma‘lumotlarni juda go‘zal va o‘qishli qilib keltirib o‘tadi

⁴ O‘sha asar,8-9-b

⁵ Madraximov A. Islomda eng muxim 40 farz, makola ahlisunna.uz sayti, 2019



Zahiriddin Muhammad Bobur esa “Mubayyin” da tahoratning farzlaridan avval bir qancha masalalarga to‘xtalib ularni mufasssal bayon qiladi. Dastlab Payg‘ambarimizning fazilatlar va afzalliklari haqida, meroj kechasining sifatiga to‘xtaladi. Bundan tashqari ahli qibla vakillari, to‘rt sahoba, din peshvolari sanalgan imomlar, mushriklar haqida va yana do‘zax va jannat tasviri, havz-i kavsar suvi to‘risida o‘zi bilganlarini yozib o‘tgan. Shu ma‘lumotlar bilan birinchi bob o‘z nihoyasiga yetadi va ikkinchi “Kitobu-s-salot” bobi bilan asar davom ettiriladi. Ushbu bob namoz va uning farzlari haqida. Namozning o‘n ikki farzidan tashqari bo‘lgan oltita farz haqida nazm qiladi. Namoz o‘qiladigan joy, namoz o‘qilganda kiyiladigan kiyim, poklik va ushbu poklik uchun sarflanadigan suv masalalariga ham alohida urg‘u beradi. Bobur tahorat va uning farzlaridan avval g‘usl bayonini, uning farzlarini to‘la sanab o‘tadi. Shundan keyingina tahorat va uning farzlariga to‘xtaladi. Bobur Navoiydan farqli o‘laroq tahoratda to‘rtta farz bor ammo “multahiyg‘a” ya‘ni soqolli insonlar uchun bu farz beshtani tashkil etishini aytib o‘tadi:

Kingakim bo‘lsa bu hidsi hodis,
Ul vazuv aylasin-ki bor muhaddis.
Bilga sen to‘rt bo‘ldi farz-i vazuv,
Multahiyg‘a lek beshdir bu. ⁶

Tahoratdagi to‘rt farz quyidagilar:

1. Yuzning soch chiqqan joyidan iyakning ostigacha va ikki quloq yumshoqlarining oralarini bir marta yuvish;
2. Ikki qo‘lning tirsaklarigacha yuvish;
3. Boshning to‘rtdan bir qismiga mas‘h totish;
4. Ikki oyoqning to‘piqlari bilan birga yuvish;⁷

⁶ Bobur Z.M. Mubayyin. T.: Abdulla Kodiriy nomidagi Xalk merosi nashriyoti, 2000, 45-b

⁷ Madraximov A. Islomda eng muxim 40 farz, makola ahlisunna.uz sayti, 2019



Bobur bu farzlar sirasiga soqolli kishilar soqol ostidagi yuz qismiga ham suv tekkizib yuvishni farz amallardan deb biladi, ammo bu farz bugungi kundagi faqihlar, ilm ahillari tomonidan alohida olib qaralmagan. Birinchi farz yaʼni yuzni yuvish fazining tarkibida aytib oʻtilgan. “Mubayyin” ning ushbu bobida “Sirojul-muslimin” ga qaraganda namozga oid har bir masala mufasssal bayon qilingan. Tahorat jarayonida ogʻiz chayishda, burunga suv tortishda, oʻng va soʻl qoʻl chayishda, bosh va quloq masʼhida, oyoq yuvganda va tahorat soʻngida oʻqiladigan duolar keltirilgan. Oyoqqa mahʼs tortish tayammum va uning farzlari, namoz vaqtlari, mustahab vaqtlar, makruh vaqtlar, qibla masalasi, namozga niyyat qilish masalasi, tahorat va namozni buzadigan amallar, ruku va sajda masalasi, sajdayi sahv tartibi, musofir namozi, juma namozi, hayit namozi, janoza va taroveh kabi jamoat namozlarining oʻqilish tartibi bayoni, bundan tashqari tahajjud, istisqo, istixora namozlari, sadaqa va fitr, qurbonlik bayoni atroflicha juda goʻzal va tushunarli qilib berilgan.

“Sirojul-muslimin” ning keying bobi islomning uchinchi rukni boʻlmish zakot masalasi va uning sharhiga bagʻishlangan. “Mubayyin” da ham xuddi shu tartib saqlangan. Har ikkala muallif asarlarida ham keying bob islomning toʻrtinchi rukni- roʻza sharhiga bagʻishlangan. Xuddi avvalgi boblar singari ushbu bobda ham Bobur bu masalaga keng nazar bilan qaragan. Navoiy oʻz asarida maʼlumot bergan kafforat masalasidan boshqa makruh va mustahab roʻzalar, ramazon oyida uyda oʻtirish kabi mavzularga imkon qadar maʼlumotlar keltirib oʻtgan.

Keying bob har ikkala shoirda ham islom dinining beshinchi rukni- haj va uning bayoni haqida. Alisher Navoiy oʻz asarida hajning farz ekanligi, lekin hamma uchun ham emas deb taʼkidlaydi, haj qachonki, sogʻligi uzoq yoʻlga yarasa, hajga boruvchi yoʻllar bexatar boʻlsa, hajni niyat qilgan kishining qarzi boʻlmasa, Parvardigori olam yoʻl yurishga moneʼ boʻladigan kasallik bermagan boʻlsa farz sanaladi.

Bu mahzurot gar yoʻq tebra filhol,



O‘zungni Do‘st ko‘yi tavfig‘a sol.
Nekim farz o‘ldi bo‘ynungda, ado qil,
Etib maqsadqa komingni ravo qil.⁸
deb bobni tugallaydi.

Bobur esa bu masalaga kengroq to‘xtaladi. Hajning farzlari, farzlarga tobe yana bir qancha mustahab amallar, ehrom bog‘lamoq bayoni, umra bayoni, afrod bayoni, qiron bayoni, ihsor bayoni haqida mufasssal ma‘lumot keltiradi. Boburning ushbu “Mubayyin” asarini hajni niyat qilgan har bir inson o‘qib chiqsa, ushbu bobda kerakli bo‘lgan barcha bilimlar jamlangan va hattoki, har bir amal jarayonida o‘qiladigan duolar ham batafsil berilib o‘tilgan. Har ikkala asar ham xotima bilan yakun topgan. Xotima qismda mualliflar kitobga berilgan nom va uning ma‘nosi, asar yozib tugatilgan yillarni keltirgan. Navoiy:

...To‘qiz yuz beshda bir farxunda farzand,
Adab birla tavozu‘din barumand.
Chu Ravshan aylar Islom ahli zotin:
“Sirojul-muslimin” qo‘ymishmen otin.⁹

Bobur:

Chun bayon ettim anda shar‘iyyot,
Ne ajab gar dedim “Mubayyin” ot.
Yil to‘qqiz yuz yigirma sekkiz erdi,
Fiqhda Bobur ushbu nazm dedi.¹⁰

Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkinki, bunday tafovutlar ilm ahli orasida turli xil muhokamalarga sabab bo‘lishi mumkin. Shu sababdan ham tadqiqotchi sifatida ularning sababi va asl mohiyatini ochib berish uchun tinimsiz izlanishlar va har yoqlama qarashlarni bartaraf etish kerak deb o‘ylayman. Asarlarning asl

⁸ Xasanxon Yaxyo Abdulmajid, Xusaynixon Yaxyo Abdulmajid. Navoiydan chu topkaylar navoye - T.: "Hilol-Nashr", 2023, 171-b

⁹ O‘sha asar, 172-173-b

¹⁰ Bobur Z.M. Mubayyin. T.: Abdulla Kodiriy nomidagi Xalk merosi nashriyoti, 2000,166-b



qo'lyozma nusxalariga tayangan holda nashrga tayyorlash va chop etish kitobxonlar uchun ham anniq ma'lumotlarga ega bo'lish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bobur Z.M. Mubayyin. T.: Abdulla Kodiriy nomidagi Xalk merosi nashriyoti, 2000.
2. Madraximov A. Islomda eng muxim 40 farz, makola ahlisunna.uz sayti, 2019.
3. Navoiy Alisher. Sirojul-muslimin. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik. – T.: Fan, 1998. 14-jild.
4. Xasanxon Yaxyo Abdulmajid, Xusaynixon Yaxyo Abdulmajid. Navoiydan chu topkaylar navoye - T.:" Hilol-Nashr", 2023